

## PAHLAVON MAHMUD ASOS SOLGAN TARIQATNING AHAMIYATI VA MAZMUNI

Suyunova Noila G'ayratovna  
O'zbekiston Milliy Universiteti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti II bosqich  
talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Pahlavon Mahmud hayoti va ijod yo'li, u yaratgan tariqat va uning mazmun-mohiyati, mantiqiy-falsafiy yondashuv asosida tahlili haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** *Forobiy, peshvo, tariqat, Zamon va makon, asarlar silsilasi, mantiq va tarix.*

Tarixni, jumladan, sharq xalqlari tarixini, xususan, tasavvuf tarixini kuzatsak, bir mantiqiy izchillik ochiq-oydin namoyon: u yoki bu g'oya, u yoki bu tariqatni, binobarin mazkur g'oya, mazkur tariqat peshvolarini muayyan bir tarixiy zarurat maydonga olib chiqadi, Albatta, bu "zaruratlar" insoniyat tarixida hamisha ham mavjud, biroq o'zi taqozo etilmish davrigacha "mudrab yotadi". Shuning uchun ajab emaski, muayyan vaqtda ko'karib, yaproq yozgan hamda meva bergan tariqat, g'oyalarning daraxtlari tarixning teran-teran qatlamlariga qadar ildiz otadi.

Futuvvat-juvonmardlik guruhining ulug' peshvolaridan biri, Fors tilida ijod qilgan, po'stindo'zlik, telpakdo'zlik, bilan shug'ullangan hamda fors va turkiy xalqlar adabiyotida, Umar, Xayyomdan so'ng faqat ruboiy yozgan shoir Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan Pahlavon Mahmuddir. U Xayyomning oddiy taqlidchisi bo'lmay, mushohada kuchi jihatidan u bilan barobar turgan.

Pahlavon Mahmud shaharhunarmand kosiblarining futuvvat-juvonmardlik harakati (13—14-asrlar) tashkilotchisi, ma'naviy rahnamosi bo'lgan. Ko'pchilik ruboiylari mardlik, marhamat va shavqat, saxovat va olijanoblik kabi juvonmardlik prinsiplari asosida yozilgan.

Asarlarida tasavvuf ta'limotining nazariy g'oyalari bilan juvonmardlik tariqatining amaliy qoidalari o'zaro omuxta holda bayon qilingan. Unga ko'ra, xudo diydori koinotdagi barcha mavjudotlarda aks etadi.

Pahlavon Mahmud moddiy borliqning manguligi, inson va tabiat, yor vasli va uning lazzati haqida fikr yuritadi. Ruboiylari fikrning ravshanligi, mazmunning teranligi, obrazlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ularda "yor", "do'st", "ma'shuqa", "jonona" kabi so'zlar turli manolarda, so'fiyona she'rlarida "xudo" manosida keladi. Pahlavon Mahmud hazratlari mansub va peshvo bo'lgan javonmardiylik tariqati ham ana shunday.

Pahlavon Mahmud tarix maydoniga chiqqan davrning o'zi javonmardiylikni talab qilgani davr talotumlariga sinchiklabroq ko'z tashlagan odamga ma'lum bo'ladi. Bu davrda Xorazm jahonning ko'pgina mamlakatlari kabi Chingizxon qo'shinlarining qattol hujumlaridan vayron, el-ulus parokanda, eng sara farzandlar qirib tashlangan, qo'llari gul insonlar haydalib ketilgan, xalq balo-ofatlardan keyin endigina o'nglanayotgan, biroq ruhan tushkun bir holatda edi. Ana shunday og'ir sinov yillarida Xorazm o'z davrida Ollohning inoyati bilan o'zi davo topdi, Pahlavon Mahmuddek farzandni tug'ib voyaga yetkazdi. Pahlavon Mahmud esa, o'z navbatida, javonmardiylik tariqatini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu tariqatni "tayanch nuqta" qilib olib, xalq ruhidagi tushkunlikni, umidsizlikni bartaraf etish borasida ham ijodiy, ham ijtimoiy shijoat ko'rsatdi.

Shak-shubha yo'q, javonmardiylik tariqatining o'q ildizi dini islom falsafasiga, bu falsafaning manbai bo'lmish Qur'oni Karimga borib bog'lanadi, hadisi shariflardan oziq oladi, aziz avliyolarning jonbaxsh hikmatlaridan bahramandlik kasb etadi.

Biroq kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadi-ki, Pahlavon Mahmudning ruboiyoti islomgacha bo'lgan davrlar tafakkuridan ham baraka topgan-ki, buning hech bir g'ayri tabiiy tomoni yo'qdir.

Javonmardiylikning mag'zini odob-ikrom fazilatlarini, ahloq-odob masalalari tashkil etgani sababli, qutlug' bu ta'limotning yon tomirlarini umuminsoniy etika falsafasi tarixidan izlashimizga to'g'ri keladi. Chuni insoniy falsafa payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga nozil bo'lgan Qur'oni Karimdan nu rolganligi bilan birga, ilmparvar islom e'tiqodining tamoyillaridan kelib chiqib, umumbashariy ma'naviyatning barcha ezgu jihatlarini o'zida mujassam qilmagan bo'lishi mumkin emasligidek bir mantiq hamisha e'tiborimizda bo'ldi.

Biz o'z taxminimizni tasdiqlash uchun, tabiiyki, avvalo bashariyat falsafasining beshiklaridan biri bo'lmish Yunonistonning antik davri bilan bog'liq manbalariga murojaat etdik. Shunday qilib, mazkur mavzuga tegishli sahifalarda Pahlavon Mahmud ruboiyotida o'zining barakali aksini topgan shaxs irodasi hamda umum manfaatlari, qaynoq ehtiroslar hamda bu ehtiroslarni mo'tadillashtirguvchi yakka shaxs murod-maqsadlari bilan boshqalarning istak hamda orzu-umidlarini sbatiga jiddiy e'tibor qaratilganligining guvohi bo'ldik.

Bu manbalarda ta'kidlanishicha, yakka odamning umum jamoa bilan, muayyan shaxsning mavhum mezonlar bilan, tuyg'ularning aql bilan, shuningdek, mavjud jihatlarining yuz berishi zarur bo'lgan jihatlar bilan munosabatlaridagi muvozanat va mutanosiblik nihoyatda muhimdir. Mazkur masalalarga tegishli ohanglarning Pahlavon Mahmud ijodida ham yaqqol barqurib turishi buyuk mutafakkir bobomizning umumjahoniy tafakkur mevalaridan, jumladan, birinchi navbatda (albatta Qur'oni Karim hamda hadisi shariflardan keyin) yunon falsafasining antik asarlaridan bahramand bo'lganligini ko'rsatadi. Shunisi ayonki,

javonmardiylik ahd bel bog'ini bog'lagan har bir insonning umumxalq manfaatlariga xizmat qilishi masalasi mazkur tariqatning mohiyatini tashkil etadi. Bu tariqat odobining barcha fazilatlarini, xislat-xususiyatlarini, talablari o'zgarar nafsining mayllari bilan yakka shaxs nafslari mayllarini gmuvozanatini ta'minlash ehtiyojidan kelib chiqib tarkib topgan.

Yunon Antik davr tafakkur sarchashmalarining sohiblaridan bo'lmish Homer, Hesiodsingari mutafakkirlarning ijodlarida umummanfaatlarning yakka shaxs manfaatlarini bilan to'qnash kelishidan bunyod bo'lgan ziddiyatlar tahlili muhim o'rin tutadi. Shunisi diqqatga sazovorki, yunon falsafasining ilm tonglarida nur sochgan xulosalar bilan hazrati Pahlavon Mahmudning teran misralarida yaqqol hamohangliklar seziladi. Ruboiy:

Ko'p chekdimu dard, bo'lmadim hech shod, darig',  
G'urbanda bu jon, qilmadi faryod, darig'.  
Afsus-nadomat yuki elkamda manim,  
Diydor qiyomatga chabarbod, darig'.

Ruboiy lirik qahramonning ruhi umumkayfiyat bilan ixtilofda ekanligi, qahramonning o'z dardini anglamagan zamondoshlari bilan hamkayfiyat emasligi, el bilan shaxs o'rtasidagi bir-birovni o'zaro anglash sodir bo'lmayotganligi sababli, mazkur zamonda hatto diydor ehtimoli (bu erda, ma'naviy diydor ko'zda tutilayotgan bo'lsa kerak ) ham yo'qligi shaxs va umummanfaatlarini mos emasligidan aniq xabar berib turibdi.

Pahlavon Mahmudning ruboiyotiga jangovarlik tuyg'usi, tasavvufiy odob-ikrom fazilatlaridan tashqari, fidokorlik, el-yurt uchun, do'stu chun jondan kechish ohanglari ham muhim o'rin tutadi. Biz mana shu boradagi fikrlarga ham shoir misralari bilan Antik davr, xususan, Homer asarlaridagi voqealar o'rtasidagi ohangdoshliklarni tuyamiz. Chunonchi, Axill, garchi o'z halokatini oldindan bilsa ham, Gektor bilan jangga hech ikkilanmasdan ravona bo'ladi. "Olis-olislarda volidalardan, xuddi ushbu yerda halok bo'lurman, jangdan tislanmagum, bilsam-da buni" – deydi uning halokatini bashorat qilgan otga javoban Axill. Umuman, yunon adabiyotida, xususan Homer asarlaridagi qahramonlarni jangning nima bilan tugashi unchalik qiziqirmaydi. Ular uchun eng muhimi Vatan uchun, do'st uchun jondan kechishgacha tayyor turish. Yunon adabiyoti qahramonlari, aytish mumkinki, shavkat uchun, shon uchun jang qiladilar. Pahlavon Mahmud hazratlari ruboiylaridan bir qanchasida jangovarlik ruhi oshkor va bu jihatning tarixiy asoslari ayon. Asoslar esa, Arastuning falsafiy, mohitana teran asarlari hamda qimmat fikrlaridir.

Pahlavon Mahmudga nisbat beriladigan "Hazrati Paxlavon ruboiylari"ning qo'lyozma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xurshid Davron kutubxonasi ijodiy sayt
2. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari
3. Ruboiylar kitobi
- 4.[http://www.ziyouz.com/index.php/Pahlavon\\_Mahmud](http://www.ziyouz.com/index.php/Pahlavon_Mahmud)
- 5.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Pahlavon\\_Mahmud](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Pahlavon_Mahmud)